



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-iyundagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyun)

72,5%



**Xizmatlar sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi**

**7 252,0
ming so'm**



**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi**

46,6%




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
(1- iyul holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar-iyun)

65,9%

2024




Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020



54,7%

Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- iyul holatiga ko'ra)

2024

68,2%



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020



59,9%

Soni, birlikda

2024

263 842

2023

270 452

2022

305 302

2021

272 358

2020

221 768

Soni, birlikda

2024

26 599

2023

30 322

2022

30 126

2021

30 547

2020

25 024

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-iyun)

2024

64,9%



Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi

2020



53,7%


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyun)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar-iyun)



¹⁾ Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan




Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyun)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	268 083,6	100,0	112,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 179,1	2,7	110,7
viloyatlar:			
Andijon	11 919,2	4,5	113,7
Buxoro	10 493,8	3,9	110,0
Jizzax	6 051,1	2,3	114,1
Qashqadaryo	10 733,8	4,0	112,3
Navoiy	6 445,7	2,4	112,5
Namangan	10 019,6	3,7	112,3
Samarqand	16 017,8	6,0	112,9
Surxondaryo	8 413,4	3,1	110,3
Sirdaryo	3 319,6	1,2	111,4
Toshkent	17 639,2	6,6	113,1
Farg'ona	14 779,8	5,5	111,8
Xorazm	7 318,0	2,7	116,1
Toshkent sh.	114 432,6	42,7	117,1

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-iyun)


	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Toshkent shahri	37 420,7	114,0%
Navoiy	5 967,7	110,5%
Toshkent	5 753,9	110,9%
Buxoro	5 116,7	108,2%
Jizzax	3 995,2	111,8%
Samarqand	3 787,8	110,5%
Xorazm	3 654,6	113,9%
Farg'ona	3 622,4	109,5%
Sirdaryo	3 616,1	109,3%
Qoraqalpog'iston Resp.	3 573,7	109,2%
Andijon	3 496,0	111,4%
Namangan	3 252,6	109,8%
Qashqadaryo	3 000,4	109,8%
Surxondaryo	2 908,9	107,5%

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-iyun)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **46,6** foizni, shu jumladan, **22,5** foizini kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-iyun)



Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyun)


Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	268 083,6	100,0	112,9
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	21 334,9	7,9	120,5
Moliyaviy xizmatlar	62 687,7	23,4	120,0
Transport xizmatlari	58 935,9	22,0	106,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	26 063,8	9,7	110,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	10 471,2	3,9	109,1
Savdo xizmatlari	59 713,5	22,3	110,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	6 776,0	2,5	112,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	11 867,0	4,4	122,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	4 879,2	1,8	111,1
Ijara xizmatlari	4 189,4	1,6	105,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3 972,6	1,5	109,7
Shaxsiy xizmatlar	6 417,2	2,4	109,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	4 278,3	1,6	103,9
Boshqa xizmatlar	12 560,7	4,7	110,6

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	36 545,6
Farg'ona	3 302,1
Samarqand	2 594,2
Andijon	2 565,7
Toshkent	2 428,4
Buxoro	2 158,4
Qashqadaryo	2 053,7
Xorazm	1 941,6
Surxondaryo	1 838,1
Qoraqalpog'iston Resp.	1 688,7
Navoiy	1 598,8
Namangan	1 540,9
Jizzax	1 363,1
Sirdaryo	1 068,4

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-iyun)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-iyunida 88,5** foizni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **58,3** foizni yoki **36 545,6** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan Xorazm viloyatida yuqori o'sish sur'ati **138,3** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyun)

2024- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **59,7** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-iyun)



Toshkent shahri	21 478,5	+6,9%
Toshkent	5 900,0	+14,3%
Farg'ona	4 350,4	+10,7%
Samarqand	4 180,0	+14,7%
Andijon	3 549,9	+10,6%
Qashqadaryo	3 231,1	+9,6%
Buxoro	3 114,7	+11,4%
Namangan	3 031,9	+11,4%
Surxondaryo	3 008,4	+13,4%
Jizzax	2 181,4	+29,3%
Navoiy	1 832,9	+7,9%
Xorazm	1 564,5	+8,7%
Qoraqalpog'iston Resp.	1 479,9	+10,8%
Sirdaryo	798,2	+9,2%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyun)

Transport xizmatlari-ning umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **44,2** foiz.

Toshkent shahrida transport xizmatlari hajmi **11 179,8** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **122,5** foizni tashkil etgan.



Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-iyun)


Toshkent shahri	11 179,8	+22,5%
Toshkent	3 694,2	+12,7%
Samarqand	3 491,4	+11,2%
Farg'ona	2 582,8	+7,3%
Andijon	2 247,6	+13,4%
Buxoro	2 067,8	+8,2%
Qashqadaryo	2 000,1	+7,8%
Namangan	1 861,5	+19,1%
Qoraqalpog'iston Resp.	1 719,6	-0,9%
Xorazm	1 503,6	+10,9%
Surxondaryo	1 196,9	+11,6%
Navoiy	949,8	+11,7%
Jizzax	762,1	+14,3%
Sirdaryo	410,7	+18,6%

¹⁾) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ⚙️ O'sishi (kamayishi)

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-iyun) ¹⁾

2024- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **26 063,8** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **9,7 %** ni tashkil etdi.



Toshkent shahri	4 500,0	+7,0%
Toshkent	3 372,4	+12,5%
Samarqand	3 131,7	+10,7%
Farg'ona	2 353,7	+7,3%
Andijon	2 130,0	+14,0%
Qashqadaryo	1 865,9	+9,2%
Buxoro	1 862,0	+9,9%
Namangan	1 556,7	+17,1%
Xorazm	1 374,9	+4,6%
Surxondaryo	1 041,9	+10,5%
Qoraqalpog'iston Resp.	908,1	+15,1%
Navoiy	857,0	+13,6%
Jizzax	728,2	+12,1%
Sirdaryo	380,3	+16,9%

Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari

(2024- yil yanvar-iyun)



2024- yil yanvar-iyun oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **65,0** foizga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi – **52,5 %**.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyun)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-iyun** oylaridagi ulushi **47,5 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-iyun)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2024- yil yanvar-iyun)

Muqobil to'plam ko'rsatkichlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
Jami	22 178,0	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	20 234,6	91,2
shu jumladan:		
Dasturiy ta'minotni nashr qilish bo'yicha xizmatlar	959,7	4,7
Telekommunikatsiya xizmatlari	9 779,2	48,3
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	7 074,1	35,0
Ma'lumotlarga ishlov berish, joylashtirish bo'yicha xizmatlar va o'zaro bog'liq xizmatlar; web-portallar	1 578,6	7,8
Kompyuterlar va aloqa uskunalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	843,0	4,2
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	1 943,4	8,8
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	386,1	19,9
Kino-videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	154,4	7,9
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	627,7	32,3
Boshqa axborot xizmatlari	775,2	39,9

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-iyun)




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-iyun** oylaridagi ulushi **60,0** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar


(2024- yil yanvar-iyun, mlrd so'mda)



Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Toshkent shahriga to'g'ri keladi. **2024-yilning yanvar-iyun** oylari davomida mazkur hududda ushbu turdagi xizmat hajmi **5 349,8** mlrd so'mga yetdi yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **45,1** foiziga yetdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun)

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024- yil yanvar-iyun** oylaridagi ulushi **46,2** foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **29,0** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **24,8** foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun)

Toshkent shahri	2 223,1	+11,1%
Toshkent	495,6	+13,1%
Samarqand	363,2	+23,4%
Farg'ona	332,4	+4,0%
Namangan	227,8	+7,5%
Andijon	212,1	+9,5%
Buxoro	211,2	+9,8%
Qashqadaryo	168,3	+13,9%
Xorazm	147,5	+8,1%
Surxondaryo	128,0	+9,6%
Jizzax	112,6	+7,5%
Qoraqalpog'iston Resp.	91,3	+16,3%
Navoiy	83,1	+3,5%
Sirdaryo	83,0	+4,8%

Hajmi, mlrd so'mda O'sishi

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾


(yanvar-iyun)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **94,7** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar


(2024- yil yanvar-iyun)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyun)

2024- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **3,9 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **79,4** foiz.



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun)

Toshkent shahri	5 642,4	+10,1%
Samarqand	821,3	+3,1%
Toshkent	814,2	+7,9%
Buxoro	464,1	+11,4%
Navoiy	426,3	+5,2%
Farg'ona	393,0	+7,8%
Qashqadaryo	330,1	+5,0%
Namangan	298,1	+14,8%
Surxondaryo	290,1	+10,2%
Xorazm	250,0	+14,0%
Andijon	238,6	+10,3%
Qoraqalpog'iston Resp.	209,7	+7,4%
Jizzax	194,1	+9,5%
Sirdaryo	99,0	+15,1%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyun)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-iyun, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	1 519,7
Samarqand	472,3
Toshkent	443,1
Farg'ona	302,7
Qashqadaryo	240,5
Andijon	236,0
Buxoro	220,0
Surxondaryo	156,3
Namangan	153,1
Qoraqalpog'iston Resp.	122,7
Xorazm	109,3
Jizzax	81,5
Navoiy	78,6
Sirdaryo	53,6




2024-yilning yanvar-iyun oylarida ijara xizmatlari hajmi **4 189,4** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **55,9** foizni tashkil etadi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-iyun, mlrd so'mda)




2024-yil yanvar-iyun oylarida huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **915,1** mlrd so'mga yetdi



Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar-iyun, mlrd so'mda)



Ushbu xizmatlar hajmining salmoqli qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keldi, uning huquq va buxgalterlik hisobi sohasida ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmidagi ulushi **83,8** foiz yoki **767,3** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023-yilning shu davriga nisbatan mazkur hudud bo'yicha huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **150,2** mlrd so'mga yoki **13,4** foizga oshdi.

Aholi jon boshiga huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun, ming so'mda)

Yuridik va buxgalteriya xizmatlari zamonaviy biznes va jismoniy shaxslar hayotida asosiy rol o'ynaydi, huquqiy himoya va moliyaviy shaffoflikni ta'minlaydi.




Hududlar kesimida aholi jon boshiga huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun, ming so'mda)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan huquq va buxgalteriya hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **250,9** ming so'mga yetdi. Shuningdek, Navoiy (**8,2** ming so'm) va Toshkent (**7,7** ming so'm) viloyatlarida nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etildi.


Surxondaryo viloyatida esa bu ko'rsatkich o'rtacha **1,2** ming so'mni tashkil etdi.

Yuridik xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun, mlrd so'mda)



2024- yil yanvar-iyun oylarida yuridik xizmatlar-ning huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi jami xizmatlar hajmidagi ulushi **33,7 %** yoki **308,0** mlrd so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida yuridik xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun, mlrd so'mda)



Hududlar orasida ushbu xizmat turiga Toshkent shahrida talab yuqori. Ushbu hududda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **231,1** mlrd so'mga yetdi yoki yuridik xizmatlar jami hajmining **75,0** foizini tashkil etdi.

Buning sababi shundaki, shaharlarda aholi zichligi, ko'proq tijorat va fuqarolik operatsiyalari va huquqiy nizolar sonining ko'payishi tufayli yuridik xizmatlarga talab sezilarli darajada oshadi.

Aholi jon boshiga yuridik xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun, so'mda)

2024- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar hajmi o'rtacha **8,3** ming so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun, ming so'mda)




2024- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar hajmi **75,6** ming so'mga yetdi. Shu bilan birga, Xorazm (**5,1** ming so'm) va Toshkent (**3,5** ming so'm) viloyatlarida nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etildi.

Surxondaryo viloyatida esa yuridik xizmatlar hajmi o'rtacha **0,7** ming so'mni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyun)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **28,1** foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-iyun)


Samarqand	468,6	+9,7%
Toshkent shahri	466,9	+12,7%
Qashqadaryo	420,0	+8,1%
Farg'ona	389,2	+9,7%
Toshkent	385,2	+8,6%
Namangan	301,0	+7,6%
Xorazm	289,4	+9,3%
Andijon	278,1	+10,5%
Buxoro	232,1	+13,0%
Qoraqalpog'iston Resp.	228,2	+9,5%
Surxondaryo	206,5	+9,0%
Jizzax	138,3	+8,8%
Navoiy	92,9	+6,3%
Sirdaryo	76,2	+12,7%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	2 449,8
Toshkent	343,9
Navoiy	302,7
Samarqand	229,1
Qashqadaryo	139,5
Farg'ona	112,1
Surxondaryo	108,9
Andijon	107,3
Xorazm	102,9
Namangan	99,5
Qoraqalpog'iston Resp.	92,6
Buxoro	83,1
Jizzax	76,5
Sirdaryo	30,4



2024- yilning yanvar-iyun oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **4 278,3** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **57,3** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

"Ta'lim" seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

Yuridik xizmatlar hajmi fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi
Tel.: 71-202-80-59 (61)